

## O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**Mashrabboyeva Dilnoza**

*«Musiqqa san'at» fakulteti «Maxsus fortepiano» kafedrasida 4- bosqich talabasi*

**Kabduraxmanova L.B**

*Rahbar: dotsent v.b*

**Annotatsiya:** *Musiqqa tili, millat tanlamaydi. Shunday ekan har qanday musiqqa insonga hech qanday qiyinchiliksiz tushunilishi mumkin. Musiqqa cheksiz, bepayon ummon kabidir. .*

*Bularni bilish va tushunish insonni yanada ko'proq o'rganishga chorlaydi. Ijodning har bir qirrasini sir sinoatli va albatta serjilodir. O'rganish, izlanish davomida esa kashf qilinib, yaratib boriladi. Musiqqa inson dunyoqarashi va inson sifatida shakllanishida eng muhimi rol o'ynaydi va bu har bir musiqqa bilimiga ega bo'lgan shaxs xususiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *musiqqa tili, intellektuallik, IQ darajasi, hissiy kechinma, ruhiyat, ton, nag'ma.*

Musiqaning inson miya faoliyatiga ta'siri va foydalari.

Musiqqa tili va millat tanlamasi so'zlashuv tili. Musiqani tushunish uchun tarjimon kerak emas. Bugungi kunda musiqqa hayotimizda juda katta ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, bundan bir necha asrlar ilgari ham kerakli ahamiyatga va e'tirofga loyiq bo'lgan desak mubolag'a bolmaydi. Inson yaratilgan mavjudotlar ichida eng ongli, his qilish va his ifodalash xususiyatiga ega. Inson uchun musiqqa inson ma'naviyatiga chuqur tasir o'tkaza olishi mumkin bo'lgan katta kuch. Rivojlanish va yuksalish uchun asosiy ozuqalardan biri va eng muhimlaridandir.

Har bir inson kamolotga erishishida uning dunyoqarashi, yuqori saviyasi, chuqur bilim hamda sog'lom fikrga ega bo'lishi uchun nimalar kerak?

Inson miyasi ma'lumot qabul qilish va qayta ishlash hamda uni amalda qo'llash bo'yicha juda katta boylik manbaidir. Inson ongi uning intellektuallik darajasi qay darajada yuqori bo'lsa u inson har qanday sohada, kasbda yuqori marralarni zabt eta oladi va albatta hayotda o'z o'rniga va mavqeiga ega bo'ladi. Musiqqa shunday bilimki uni o'rganish yoki musiqqa bilan shug'ullanish faqatgina musiqqa sohasidagi ya'ni musiqani kasb sifatida o'rganadigan insonlar uchunmas, balki boshqa har qanday kasb egalari uchun ham juda foydali. Olimlar tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, musiqqa bilan shug'ullangan yoki musiqqa ilmidan xabari bor inson miya tizimi boshqalarnikiga qaraganda tezroq ishlaydi.

Musiqada shunday yo'nalishlar borki, miya ikkala yarim shari teng bir vaqtda faoliyat olib borishga majbur qiladi va bu esa albatta kamdan-kam uchraydigan hodisa. Yoshligida musiqqa bilan shunchaki qiziqish uchun shug'ullangan keyinchalik esa boshqa kasb tanlagan insonlar 95% katta muvaffaqiyatga erishishgan. Bu natijalar

shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida musiqa sohasini rivojlantirish va kengaytirish hamda uni o'rganish har qanday holatda ham foydadan holi bo'lmaydi.

Hozirgi kunda san'at sohasida shug'ullanib kelayotgan shaxslar hayotidagi yutuqlari uning bu sohaga bo'lgan aloqasi bilan bog'liq deb aytish mumkin. Yoshlikdan rivojlanish va yuksalish paytida kerakli bilim va ko'nikmalarni egallash ko'zlangan maqsadga vaqtidan oldinroq elitadi. Umumiy dunyoqarash, fikrlash va IQ darajasini yuqori bo'lishiga eng asosiy omil sifatida qarash mumkin va bu albatta fanda ham o'z isbotini topgan.

Avvalo inson miya faoliyati uchun aqliy salohiyati uchun foydali bo'lsa, ikkinchi tarafdin bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun ham asosiy sabablardan biridir. Hozirgi kundagi kelib chiqayotgan ayrim muammolar yoki o'smirlarda uchrayotgan holatlarni oldini olishda bu usullardan foydalanish yordam bera oladi va qaysidir ma'noda bunga yechim bo'la oladi.

Musiqa sadolarining inson organizmiga ta'siri haqida Gippokrat ham gapirib o'tgan. Maxsus kuylar yordamida qadim zamonlarda tabiblar tutqanoq va bosh og'rig'ini davolashgan. Aytishlaricha, kor qilgan ekan. Umuman, hozir ham odamlarga musiqa yetarlicha ta'sir o'tkazadi. Muhimi — to'g'ri tanlov qilish.

Yoki boshqa bir manba fikriga qarasa, aslida yaxshi kayfiyat bisotimizga quvnoq taronalarni tinglashga turtkidir. Bunda yaxshi kayfiyatning o'zi quvnoq musiqalar eshitishimizga sababchi ekani aytilmoqda. Shunday ekan, bu ikki tushuncha jarayonda bir-birini taqozo etib boraveradi.

Musiqa (yunonchadan "mousiche" — muzalar san'ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat.

Taqdim etgan ma'lumotga qaraganda musiqa aslan insonning hissiy kechinmalarini aks ettiruvchi san'at turi. Shuning uchun ham u hissiyotlarga yaxshi ta'sir o'tkazadi. Chunki uning mazmuni ham yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ruhiy holatlarni ifodalovchi musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Demak, undagi har qanday musiqiy badiiy obraz ruhiy holatlarni ifodalab keladi.

Inson his qiladigan kechinmalarining sanog'i bo'lmasa kerak. Lekin xususiylik nuqtayi nazaridan emas, umumiylik tarafdin baho bersak, ularning barchasini ikki guruhga ajratish mumkin: ijobiy va salbiy hislar.

Yaxshi kayfiyat, xursandchilik, baxt, quvonch, shodlik, kulgi... Biz yaxshi hissiyotlar deb ataydigan kechinmalarining nomlarini hali uzoq davom ettirish mumkin.

"Pozitiv psixologiya jurnali" o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, yaxshi kayfiyatda bo'lgan inson eshitgan "yaxshi kayfiyatli" musiqalar uning yanada ko'tarinki ruhda bo'lishiga yordam beradi. Demak, ijobiy hislar ulashuvchi ohanglarning yaxshi kayfiyatdagi odamga ta'siri ham yaxshi bo'ladi.

**FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Asafyev B. O muzike XX veka /Leningrad: Muzika, 1982. - 197 b.
2. Ganslik E. O muzikalno-prekrasnom. Opit pereosmislniya muzikal'noy estetiki.- M.: Librokom, 2012. -232 b.
3. Muzikal'noe ispolnitel'stvo: Sbornik statey M89.Vip.10, M.,Muzika,1979.- 239 b.